Central Asian Research Journal of Natural and Exact Sciences
INTERNATIONAL SCIENTIFIC, APPLIED AND THEORETICAL JOURNAL
2026 / № 1(3)
SCIENCE FOR A SUSTAINABLE CENTRAL ASIA

YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY SIYOSATNING TRANSFORMATSIYASI: AHOLI FAROVONLIGI, IJTIMOIY HIMOYA VA INSON KAPITALI RIVOJI

СТРАТЕГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА: ПРИНЦИПЫ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДОСТОИНСТВА, СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ И БЛАГОПОЛУЧНОЙ ЖИЗНИ

THE STRATEGIC DEVELOPMENT MODEL OF NEW UZBEKISTAN: PRINCIPLES OF HUMAN DIGNITY, SOCIAL JUSTICE, AND PROSPEROUS LIVING

Atabaeva Nigoraxon Maxmudjanovna

Toshkent xalqaro universiteti Andijon fakulteti, Ijtimoiy fanlar va ta’lim-2 kafedrasi dotsenti

Komilova Rayyonabonu

Toshkent xalqaro universiteti Andijon fakulteti, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohada kechayotgan o‘zgarishlar, xususan kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimini yangilash jarayonlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot davomida 2021-2025 yillarga oid rasmiy hujjatlar va statistik ma’lumotlar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi yillarda kambag‘allik darajasi sezilarli pasaygan, nogironligi bo‘lgan shaxslarga xizmat ko‘rsatish tizimi o‘zgargan va ijtimoiy yordamni raqamlashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Asosiy xulosa shundaki, davlat siyosati endi faqat moddiy yordam berish bilan cheklanmay, odamlarning mustaqil hayot kechirishiga sharoit yaratishga qaratilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются социальные преобразования, осуществляемые в Новом Узбекистане, в частности процессы сокращения бедности и модернизации системы социальной защиты населения. В ходе

исследования проведён анализ официальных нормативно-правовых документов и статистических данных за 2021–2025 годы. Результаты исследования свидетельствуют о существенном снижении уровня бедности в последние годы, преобразовании системы предоставления социальных услуг лицам с инвалидностью, а также повышении внимания к цифровизации механизмов оказания социальной помощи. Основной вывод исследования заключается в том, что современная государственная социальная политика ориентирована не только на предоставление материальной поддержки, но и на создание необходимых условий для самостоятельной жизнедеятельности граждан, повышения их социальной активности и укрепления экономической самостоятельности.

Abstract. This article examines the social transformations taking place in New Uzbekistan, with particular emphasis on poverty reduction and the modernization of the social protection system. The study analyzes official regulatory documents and statistical data covering the period from 2021 to 2025. The findings indicate a substantial decline in the poverty rate in recent years, significant changes in the provision of social services for persons with disabilities, and increased attention to the digitalization of social assistance mechanisms. The principal conclusion of the study is that contemporary state social policy is no longer limited to providing financial assistance but is increasingly focused on creating favorable conditions for independent living, promoting social participation, and strengthening the economic self-reliance of citizens.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy himoya, kambag‘allik, manzilli yordam, ijtimoiy xizmat, davlat siyosati.

Ключевые слова: социальная защита, бедность, адресная социальная помощь, социальные услуги, государственная социальная политика.

Keywords: social protection, poverty, targeted social assistance, social services, state social policy.

KIRISH

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohaga bo‘lgan munosabat anchadan beri o‘zgarib kelmoqda. Agar avvallari davlatning bu boradagi vazifasi asosan nafaqa va kompensatsiyalar bilan chegaralangan bo‘lsa, endi vaziyat boshqacha. Endilikda "kambag‘allikdan farovonlik sari" degan tamoyil asos qilib olinib, har bir insonning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishiga sharoit yaratish maqsad qilingan (1).

Bu jarayonning asosiy maqsadi - fuqarolarning munosib hayot kechirishi uchun zarur sharoit yaratish, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va turmush darajasini yaxshilash. Shu bilan birga, davlat yordamini haqiqatan ham ehtiyojmand oilalarga yetkazish, ularning bandligini ta’minlash va mustaqil daromad manbalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu bois ushbu tadqiqotning maqsadi - ijtimoiy sohadagi o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash va ularning ahamiyatini asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot ob’ekti sifatida 2021-2025 yillar davomida ijtimoiy sohada qabul qilingan Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda ularning amaliyotdagi ijrosi olindi.

Tadqiqotni o‘tkazishda tizimli tahlil, taqqoslash va statistik ma’lumotlarni umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Milliy statistika qo‘mitasining kambag‘allik darajasi bo‘yicha ko‘rsatkichlari tahlil qilindi, rasmiy davlat portallarida e’lon qilingan hisobotlar o‘rganildi. Normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish orqali islohotlarning huquqiy asoslari va ularning amaliyotga tatbiq etilish mexanizmlari tahlil qilindi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida ijtimoiy sohada amalga oshirilgan o‘zgarishlarning uchta asosiy yo‘nalishi aniqlandi.

Birinchidan, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha sezilarli natijalarga erishildi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021 yilda kambag‘allik darajasi 17,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda 14,1 foizga, 2023 yilda 11,0 foizga, 2024 yilda 8,9 foizga va 2025 yilda 5,8 foizga tushdi (2). Bu jarayonda «Ijtimoiy himoya yagona reestri»

va «Kambag‘al oilalar reestri» negizida yagona «Ijtimoiy reestr» tizimining joriy etilishi muhim rol o‘ynadi (1).

Ikkinchidan, nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi ham takomillashtirildi. Xususan, 2025 yilda Andijon shahrida «Imkoniyatlar olami» hududiy ijtimoiy xizmatlar markazi tashkil etildi (4). Shuningdek, «Muruvvat» internat uylarining «G‘amxo‘rlik» markazlariga o‘zgartirilishi ijtimoiy xizmatlarning insonparvarlik tamoyillariga asoslanishini ko‘rsatdi (5).

Uchinchidan, ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish jarayoni jadallashtirildi. Ehtiyojmand oilalarga oziq-ovqat va kiyim-kechak uchun vaucherlar berish tartibi joriy etildi, shuningdek, davlat pensiyalarini tayinlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatish muddatlari qisqartirildi (3).

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ijtimoiy siyosat passiv yordam berishdan faol iqtisodiy integratsiyaga o‘tmoqda. Kambag‘allik darajasining pasayishi ijtimoiy yordamning manzilliligi oshgani bilan bog‘liq.

Lekin shu o‘rinda bir savol tug‘iladi: kambag‘allikning 5,8 foizga tushishi faqat real daromad o‘sishi bilan izohlanadimi? O‘ylashimcha, bu yerda hisoblash metodikasining o‘zgarishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin. Bu borada kelgusi tadqiqotlarda mazkur omillarni alohida o‘rganish talab etiladi. Ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish jarayoni samaradorlikni oshirsa-da, aholining raqamli ko‘nikmalari cheklangan qatlamlari uchun an’anaviy xizmat ko‘rsatish usullarini ham saqlab qolish zarur. Bundan tashqari, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yaratilayotgan sharoitlar faqat tibbiy reabilitatsiya bilan cheklanmay, ularning kasb-hunar egallashi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga qaratilishi lozim.

XULOSALAR

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kambag‘allikni qisqartirish, ehtiyojmand oilalarni manzilli qo‘llab-

quvvatlash, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay sharoitlar yaratish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish bu boradagi ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi.

Mazkur o‘zgarishlar aholining turmush farovonligini oshirish, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va inson qadrini ulug‘lashga xizmat qiladi. Shu sababli ijtimoiy sohadagi islohotlarni izchil davom ettirish, ularning natijadorligini oshirish va har bir fuqaroning ehtiyojini hisobga olish muhim vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 26 dekabrdagi PF-258-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. «Kambag‘allik darajasi» bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar. 2021–2025 yillar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi PF-17-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy axborot xizmati. «Imkoniyatlar olami» hududiy ijtimoiy xizmatlar markazi haqidagi ma’lumot. 2025 yil 16 aprel.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 27 apreldagi PF-69-son Farmoni.